

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF COMPLETE ASSESSMENT TECHNOLOGY IN ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION

Djalolov Furqat

Senior Lecturer Uzbekistan state world languages university

E-mail: furkatdjalolov76@gmail.com

Abstract. This article studies the importance and effectiveness of the technology of full mastery in improving the quality of education. The article comprehensively analyzes the theoretical foundations of the technology of full mastery, its role in the pedagogical system and its impact on the process of student learning. The results show that the technology of full mastery is an important tool for ensuring an individual approach, increasing the level of student mastery and improving the quality of education.

Keywords: quality of education, individual approach, educational process, pedagogical technology, mastery level, educational effectiveness.

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ROLI

Djalolov Furqat Fattohovich

O'zbekiston jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda to'liq o'zlashtirish texnologiyasining ahamiyati va samaradorligi tadqiq qilingan. Maqolada to'liq o'zlashtirish texnologiyasining nazariy asoslari, uning pedagogik tizimda tutgan o'rni hamda talabalar bilim olish jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri keng qamrovli tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, to'liq o'zlashtirish texnologiyasi individual yondashuvni ta'minlash, talabalar o'zlashtirish darajasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, individual yondashuv, o'quv jarayoni, pedagogik texnologiya, o'zlashtirish darajasi, ta'lim samaradorligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N92>

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri ta'lim sifatini oshirish va har bir o'quvchi yoki talabaning o'quv materialini to'liq o'zlashtirishini ta'minlashdir. An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning individual xususiyatlari, o'rganish sur'ati va qobiliyatlari ko'pincha e'tiborga olinmaydi, natijada bilim olish jarayonida farqlar paydo bo'ladi va ayrim talabalar o'quv dasturini to'liq o'zlashtirilmaydi. Bu muammo ta'lim sifatining pasayishiga, talabalar motivatsiyasining kamayishiga va ularning keyingi bilim olish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi [1]. To'liq o'zlashtirish texnologiyasi (mastery learning) ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan pedagogik yondashuv sifatida XX asrning ikkinchi yarmida AQSh olimi Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik ko'plab tadqiqotchilar tomonidan takomillashtirilgan [2]. Ushbu texnologiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, deyarli barcha o'quvchilar agar ularga yetarli vaqt va mos ta'lim sharoitlari berilsa, o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtirishlari mumkin. To'liq

o'zlashtirish texnologiyasi an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, vaqtni o'zgarmas, o'zlashtirish darajasini esa o'zgaruvchan parametr sifatida emas, balki aksincha, o'zlashtirish darajasini belgilangan yuqori standartda saqlash va bunga erishish uchun vaqt va usullarni moslashtirishni nazarda tutadi [3].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili usuli qo'llanildi, bunda o'zbek, rus va xorijiy manbalar asosida to'liq o'zlashtirish texnologiyasining nazariy asoslari, tarixiy rivojlanishi va amaliy qo'llanilishi bo'yicha mavjud tadqiqotlar sistemali ravishda o'rganildi. Benjamin Blumning "to'liq o'zlashtirish konsepsiyasi" asosida ishlab chiqilgan ushbu texnologiya ta'lim jarayonini talabalar individual ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, u bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi [1]. Birinchidan, aniq belgilangan ta'lim maqsadlari va o'zlashtirish mezonlari ishlab chiqiladi, bu talabalar nima bilishlari va qanday natijalarni ko'rsatishlari kerakligini aniq tushunishlariga yordam beradi. Ikkinchidan, o'quv materiali kichik, mantiqiy bog'langan qismlarga bo'linadi va har bir qism o'zlashtirilgandan so'ng keyingisiga o'tiladi. Uchinchidan, doimiy diagnostika va qayta ta'lim imkoniyatlari yaratiladi, ya'ni talabalar materialni birinchi urinishda to'liq o'zlashtirilmaganlarida, ularga qo'shimcha vaqt, resurslar va turli xil o'qitish usullari taqdim etiladi [2].

Rossiyalik tadqiqotchi G.K. Selevko to'liq o'zlashtirish texnologiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari sinfiga kiritadi va uning asosiy xususiyati har bir talabaning o'z individual traektoriyasi bo'yicha rivojlanishini ta'minlashda ko'radi [4]. Selevko ta'kidlashicha, bu texnologiya an'anaviy sinf-dars tizimining kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, unda barcha talabalar bir xil vaqt davomida bir xil tezlikda bilim olishlari kutiladi, bu esa individual farqlarni hisobga olmaydi. To'liq o'zlashtirish texnologiyasi esa har bir talabaga o'z qobiliyati va sur'atida rivojlanish imkoniyatini beradi, shu bilan birga yuqori ta'lim standartlariga erishish talabini saqlab qoladi [4]. Xorijiy tadqiqotchilar J.B. Carroll va J.H. Block to'liq o'zlashtirish modelining samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali isbotlaganlar va bu texnologiya qo'llanilgan holatlarda talabalar bilim sifati sezilarli darajada oshganligini ko'rsatganlar [5]. Ularning tadqiqotlari shuni aniqladi ki, to'liq o'zlashtirish sharoitida kuchsiz o'quvchilar ham yetarli vaqt va yordam berilganda o'rtacha va yuqori darajadagi o'quvchilar natijalari darajasiga yetishlari mumkin.

O'zbekistonda ham oxirgi yillarda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va to'liq o'zlashtirish texnologiyasi kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga qiziqish ortib bormoqda [6]. Mahalliy tadqiqotchilar ushbu texnologiyaning milliy ta'lim tizimiga moslashtirilishi va qo'llanilishi bo'yicha ishlarni olib bormoqdalar. Biroq, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'liq o'zlashtirish texnologiyasining qo'llanilishida bir qator qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, bu texnologiya o'qituvchilardan yuqori malaka va ko'p vaqt talab qiladi, chunki har bir talaba uchun individual yondashuv ishlab chiqish va doimiy monitoring olib borish kerak [3]. Ikkinchidan, katta guruhlarda ishlaganda resurs va vaqt cheklovlari muammosi yuzaga keladi. Uchinchidan, an'anaviy baholash tizimini o'zgartirish va o'zlashtirish darajasiga asoslangan yangi baholash mezonlarini joriy etish zarur bo'ladi [7].

Biroq, ushbu qiyinchiliklarga qaramay, ko'plab tadqiqotlar to'liq o'zlashtirish texnologiyasining afzalliklarini tasdiqlaydi. Xususan, bu texnologiya talabalar motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o'z muvaffaqiyatlarini aniq ko'radilar va har bir bosqichda ijobiy natijalar olish imkoniyatiga ega bo'ladilar [8]. Shuningdek, bu yondashuv talabalar o'rtasidagi bilim

darajasi farqlarini kamaytirishga yordam beradi va ta'lim jarayonida tengsizliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim platformalarining rivojlanishi to'liq o'zlashtirish texnologiyasini joriy etishni yanada osonlashtirmoqda, chunki ular individual o'rganish trayektoriyalarini yaratish, avtomatik monitoring va adaptiv o'qitish imkoniyatlarini taqdim etadi [9].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, to'liq o'zlashtirish texnologiyasi ta'lim sifatini oshirishda bir qator muhim afzalliklarga ega ekanligi aniqlandi. Birinchi navbatda, bu texnologiya talabalarining o'quv materialini chuqur va puxta o'zlashtirishini ta'minlaydi, chunki har bir bosqichda belgilangan mezonlarga erishmasdan keyingi bosqichga o'tilmaydi. Bu esa bilimlarning mustahkam asosga ega bo'lishini va keyingi o'rganish jarayonida muammolarga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi. An'anaviy ta'limda ko'pincha kuchsiz o'zlashtirgan talabalar ham keyingi mavzularga o'tishga majbur bo'ladilar va bu ularning keyingi bilim olishida qiyinchiliklarga olib keladi, to'liq o'zlashtirish texnologiyasi esa bu muammoni bartaraf etadi [1]. Ikkinchidan, bu texnologiya talabalar o'rtasidagi tengsizliklarni kamaytirishga yordam beradi, chunki u zaif talabalar uchun qo'shimcha vaqt va resurslar ajratadi va ular ham yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jihatdan to'liq o'zlashtirish texnologiyasi ijtimoiy adolatni ta'minlash vositasi sifatida ham qaralishi mumkin [2].

Uchinchidan, bu yondashuv talabalarining o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular o'z o'rganish jarayonini monitoring qilishga, kamchiliklarini aniqlashga va ularni bartaraf etish uchun qo'shimcha ishlar olib borishga o'rganadilar. Bu ko'nikmalar umrbod ta'lim konsepsiyasi doirasida ayniqsa muhim ahamiyatga ega [5]. To'rtinchidan, talabalar motivatsiyasi va o'z-o'ziga ishonchi ortadi, chunki ular doimiy ravishda muvaffaqiyatga erishish tajribasini oladi va har bir bosqichda o'z rivojlanishini kuzatadilar. Bu esa ta'lim jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantiradi va o'qishga qiziqishni oshiradi [8]. Biroq, to'liq o'zlashtirish texnologiyasining ba'zi cheklovlari ham mavjud. Eng muhim muammo bu texnologiyani joriy etish uchun zarur bo'lgan resurslar va vaqt sarfi bilan bog'liq. O'qituvchilar har bir talaba uchun individual yondashuv ishlab chiqishlari, turli xil o'qitish materiallari va usullarini tayyorlashlari, doimiy diagnostik testlar o'tkazishlari va natijalarga qarab ta'lim jarayonini moslashtirishlari kerak, bu esa katta mehnat va vaqt talab qiladi [3].

Shuningdek, katta guruhlarda ishlashda ushbu texnologiyani to'liq qo'llash qiyin bo'lishi mumkin, chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha talabalarining individual ehtiyojlariga javob bera olmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun zamonaviy tadqiqotchilar raqamli texnologiyalardan foydalanishni taklif qiladilar, masalan, adaptiv o'qitish tizimlari, onlayn kurslar va sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatlari mavjud [9]. Yana bir muhim masala bu baholash tizimini o'zgartirish zaruratidir. An'anaviy ta'limda baholash ko'pincha talabalarni bir-biri bilan taqqoslashga asoslanadi (normativ baholash), to'liq o'zlashtirish texnologiyasida esa belgilangan mezonlarga erishish asosida baholash (kriteriy baholash) amalga oshiriladi [7]. Bu o'zgarish o'qituvchilar va ta'lim tizimi rahbariyatidan yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Shuningdek, vaqt cheklovlari ham muammo tug'dirishi mumkin, chunki o'quv dasturi odatda ma'lum vaqt davomida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi materiallarni o'z ichiga oladi. To'liq o'zlashtirish texnologiyasida esa ba'zi talabalar materialni o'zlashtirishga ko'proq vaqt talab

qilishlari mumkin va bu o'quv rejasini buzishi yoki dasturning barcha qismlarini qamrab olmaslik xavfini tug'dirishi mumkin [10].

Ushbu muammolarni hal qilish uchun tadqiqotchilar aralash yoki gibrid modellarni taklif qiladilar, bunda to'liq o'zlashtirish texnologiyasining asosiy tamoyillari saqlanadi, lekin vaqt va resurs cheklovlarini hisobga olgan holda moslashtiriladi. Masalan, eng muhim va bazaviy bilimlar uchun to'liq o'zlashtirish talabi qo'llanilsa, qo'shimcha yoki kengaytiruvchi materiallar uchun nisbatan yumshoqroq yondashuv qo'llanilishi mumkin. Umuman olganda, to'liq o'zlashtirish texnologiyasi ta'lim sifatini oshirish uchun kuchli vosita hisoblanadi va uning samaradorligi ko'plab tadqiqotlar orqali isbotlangan. Biroq, uning muvaffaqiyatli joriy etilishi ta'lim tizimining kompleks tayyorgarligi, o'qituvchilarning malakasini oshirish, zarur resurslarni ta'minlash va an'anaviy ta'lim paradigmatlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Xulosa. Ta'lim sifatini ta'minlashda to'liq o'zlashtirish texnologiyasi muhim rol o'ynaydi va zamonaviy ta'lim tizimining asosiy muammolarini hal qilishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu texnologiya talabalarining bilim o'zlashtirish darajasini oshirish, individual farqlarni hisobga olish, ta'lim jarayonida tengsizliklarni kamaytirish va talabalar motivatsiyasini yaxshilash imkoniyatiga ega. To'liq o'zlashtirish texnologiyasining asosiy g'oyasi — barcha talabalar agar ularga yetarli vaqt, mos ta'lim sharoitlari va individual yondashuv berilsa, yuqori ta'lim standartlariga erishishlari mumkin — bu pedagogik jihatdan adolatli va ilmiy asosga ega yondashuv hisoblanadi. Biroq, ushbu texnologiyaning muvaffaqiyatli joriy etilishi bir qator shartlarga bog'liq. Birinchidan, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish zarur. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida zarur resurslar, o'quv materiallari va texnologik bazani ta'minlash kerak. Uchinchidan, baholash tizimini isloh qilish va normativ baholashdan kriteriy baholashga o'tish muhim ahamiyatga ega. To'rtinchidan, o'quv dasturlari va o'quv rejalarida moslashuvchanlikni ta'minlash, talabalarining individual ehtiyojlariga javob beradigan strukturani yaratish talab etiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim platformalarining rivojlanishi to'liq o'zlashtirish texnologiyasini joriy etishni yanada osonlashtiradi va uni keng ko'lamda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Kelajakda ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan modellarni ishlab chiqish va amaliy tajribalarni umumlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. To'liq o'zlashtirish texnologiyasi O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish jarayonida samarali vosita bo'la oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Блум Б. Таксономия образовательных целей. Сфера познавательной деятельности. М.: Просвещение, 1976. 254 с.
2. Block J.H., Burns R.B. Mastery Learning. Review of Research in Education. Vol. 4, 1976. P. 3-49.
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. 192 с.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. М.: Народное образование, 1998. 256 с.
5. Carroll J.B. A Model of School Learning. Teachers College Record. Vol. 64, No. 8, 1963. P. 723-733.
6. Толипов У.Қ., Усмонбоева М.Р. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Тошкент: Фан, 2005. 167 б.

7. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. М.: Знание, 1989. 80 с.
8. Guskey T.R. Implementing Mastery Learning. 2nd Edition. Belmont: Wadsworth Publishing, 1997. 264 p.
9. Anderson L.W. Mastery Learning in the Digital Age. In: Seel N.M. (eds) Encyclopedia of the Sciences of Learning. Boston: Springer, 2012. P. 2132-2135.
10. Қодирова Ф.А. Таълим жараёнида инновацион технологиялардан фойдаланиш. Педагогик маҳорат журнали. 2018. № 3. 45-48 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).